

O‘ZBEK TILINING IZOHLI LUG‘ATIDA FOLKLORIZMLARNING BERILISHI VA LEKSIKOGRAFIK TAVSIFI ("ALP" LEKSEMASI MISOLIDA)

Mexliyeva Dilnoza Usmonovna,

*O‘zRFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti
katta ilmiy xodimi.*

G-mail: dilnozamekhlilyeva@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada folklorizmlarning izohli lug‘atlarda aks ettirilishi va ularning leksikografik tavsifi masalalari "alp" leksemasi misolida tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida "O‘zbek tilining izohli lug‘ati"ning turli nashrlari, qadimgi turkiy yozma yodgorliklar hamda tarixiy lug‘atlar materiallari qiyosiy tahlil qilindi. Natijada "alp" leksemasining nafaqat leksik birlik, balki turkiy xalqlar madaniyatidagi bazaviy lingvomadaniy konseptlardan biri ekanligi aniqlandi. Shuningdek, zamonaviy leksikografiyada folklorizmlarni tavsiflashda etnomadaniy va konseptual yondashuvlardan foydalanish zarurligi asoslandi.

Kalit so‘zlar: folklorizm, leksikografiya, izohli lug‘at, alp, lingvomadaniyat, konsept, etnolingvistika, turkiy tillar, semantika.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы отражения фольклоризмов в толковых словарях и их лексикографического описания на примере лексемы «alp». В ходе исследования были сопоставительно проанализированы материалы различных изданий «Толкового словаря узбекского языка», древнетюркских письменных памятников и исторических словарей. Установлено, что лексема «alp» представляет собой не только лексическую единицу, но и один из базовых лингвокультурных концептов тюркских народов. Обоснована необходимость использования этнокультурного и концептуального подходов при описании фольклоризмов в современной лексикографии.

Ключевые слова: фольклоризм, лексикография, толковый словарь, alp, лингвокультурология, концепт, этнолингвистика, тюркские языки, семантика.

Abstract. This article examines the representation of folklorisms in explanatory dictionaries and their lexicographic description through the example of the lexeme "alp". The study comparatively analyzes different editions of the Explanatory Dictionary of the Uzbek Language, Old Turkic written monuments, and historical lexicographic sources. The findings demonstrate that the lexeme "alp" is not merely a lexical unit but also one of the fundamental linguocultural concepts in Turkic culture. The paper substantiates the necessity of applying ethnocultural and conceptual approaches in the lexicographic description of folklorisms within modern dictionary-making practices.

Keywords: folklorism, lexicography, explanatory dictionary, alp, linguoculturology, concept, ethnolinguistics, Turkic languages, semantics.

Kirish. Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi milliy tillarning lingvomadaniy qatlamlarini saqlash, tavsiflash va ilmiy muomalaga kiritish masalasini zamonaviy tilshunoslikning dolzarb yo‘nalishlaridan biriga aylantirdi. Til xalqning tarixiy tajribasi, madaniy xotirasi va milliy tafakkurini saqlovchi semantik makon sifatida folklor leksikasini o‘rganishni alohida ahamiyatli qiladi.

Folklorizmlar milliy madaniyatning verbal kodlari sifatida til tizimida nominativ, kumulyativ, etnomadaniy va konseptual vazifalarni bajaradi. Shu sababli ularning izohli lug‘atlarda aks ettirilishi masalasi nafaqat leksikografik, balki lingvomadaniy ahamiyatga ham ega.

Adabiyotlar tahlili. Mazkur mavzu yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarda folklorizmlarning izohli lugʻatlarda berilishi va ularning leksikografik tavsifi muhim ilmiy yoʻnalish sifatida qaraladi. Qadimgi turkiy manbalarda, xususan Devonu lugʻotit turk, Qutadgʻu bilig va Hibbat ul-haqoyiqda “alp” leksemasi “bahodir, mard” maʼnolarida qoʻllanilgan.

Zamonaviy leksikografiyada esa Oʻzbek tilining izohli lugʻati hamda Oʻzbek tilining izohli lugʻatida ushbu birlikning folklor va tarixiy qatlamlari qayd etilgan. Shuningdek, Akbar Hasanovning ishlari folklor birliklarini lugʻatlarga kiritish masalalarini yoritishda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda folklorizmlarning izohli lugʻatlarda berilishi va ularning leksikografik tavsifi “alp” leksemasi misolida tahlil qilindi. Tadqiqot davomida tavsifiy, qiyosiy-tarixiy hamda leksikografik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Shuningdek, Devonu lugʻotit turk, Oʻzbek tilining izohli lugʻati va Oʻzbek tilining izohli lugʻati kabi manbalar qiyosiy oʻrganildi.

Tahlil jarayonida folklorizmlarning semantik, tarixiy va lingvomadaniy xususiyatlarini ochib berish uchun kognitiv va etnolingvistik yondashuvlar ham qoʻllanildi.

Tahlillar va natijalar. Dunyo leksikografiyasida folklorizmlarni tavsiflashning ikki asosiy tamoyili mavjud. Birinchi yondashuvda birlikning lugʻaviy maʼnosi asosiy oʻrin egallasa, ikkinchi yondashuvda uning madaniy, tarixiy va konseptual mazmuni ham tavsiflanadi. Zamonaviy antropotsentrik tilshunoslik ikkinchi yondashuvning ilmiy samaradorligini koʻrsatmoqda. Oʻzbek leksikografiyasida folklor birliklarini lugʻatlarga kiritish va tavsiflash anʼanalari XX asr boshlaridan shakllana boshlagan. Xalq ogʻzaki ijodi materiallari adabiy til taraqqiyotining muhim manbalaridan biri sifatida eʼtirof etilgan. [5].

“Alp” leksemasi qadimgi turkiy qatlamga mansub boʻlib, turkiy xalqlar qahramonlik haqidagi tasavvurlarining markaziy birliklaridan biri hisoblanadi. 1981-yilda nashr etilgan “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da [3].alp soʻzi “bahodir”, “pahlavon” maʼnolarida izohlanib, folklorizm sifatida qayd etilgan. Mazkur izohda leksemaning umumiy semantik mazmuni aks etgan. OʻTilning 2020-yilda chop etilgan VI jildli nashrida [4].alp leksemasining tarixiy qatlami ham koʻrsatilib, Алп: 1 Qadimgi turkiy xalqlarda ikki qoʻshin oʻrtasidagi jang boshlanishidan oldin yakkama-yakka olishuvda ishtirok etuvchi jangchi. 2 folk. Oʻzbek xalq dostonlarida gʻayritabiiy kuch-quvvati, mardligi, jasorati va sh.k. bilan ajralib turadigan qahramon sifati. Oʻzi ekan nomi ketgan pahlavon, Alp Avazni koʻrdingizmi, onajon? “Zulfizar bilan Avazxon” tarzida berilgan boʻlib 2023-yilgi nashrda ham ushbu izoh saqlanib qolgan. Shu oʻrinda “alp” sozining qadimiy manbalarda kelishini koʻrib chiqamiz. Buyuk qomusiy olim, ilk turkiy leksikograf Mahmud Koshgʻariyning “Devoni lugʻoti turk” asarida: [2]. alpأب alp - botir, qahramon: جُعِيدَا الْجُنَّ يَغِيدَا أَلْبُ Jagʻida, alchaq jagʻida - “botir dushman bilan toʻqnashganda, olishganda, yuvosh–tirishishda sinaladi” tarzida berilgan. Bu soʻz quyidagi parchada ham kelgandir: Alp er Tona öldimoʻ,

Esiz ajun qaldimu, Ozlak öchin aldimu, Emdi jo‘rak jirtulur. (Alp Er To‘nga (Afrasiyob) o‘ldimi, Yaramas dunyo qoldimu, Dunyo undan o‘chini oldimi, Endi yuraklar uning uchun yaralanmoqda.)” “Devon” turkiy so‘zlar izohiga bag‘ishlanganligi va unda “alp”ning berilishi bu so‘zning naqadar qadimiy, turkiy xalqlar ijtimoiy hayotida, milliy tafakkurida muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.

“Devoni lug‘oti turk”, “Qutadg‘u bilig”, “Hibbatul haqoyiq” asarlari asosida tayyorlangan “Qadimgi turkiy til lug‘ati”da [1] “alp” so‘zi quyidagicha berilgan: ALP 1. botir, bahodir, pahlavon, mard: negu ter eshitil tona alp erig / bilib sözlamish kör bu öt, sav irig - mard, botir kishi nima deganini eshitgin, u pand, nasihat, o‘g‘itlarni bilib, so‘zlagan. Alp yag‘ida alchaq chog‘ida - mard maydonda, yuvosh bahsda sinaladi. Alplar bila urushma / beglar birla turushma – pahlavonlar bilan urishma, beglar bilan tortishma. ALP 2. alp, qo‘shma va murakkab shaxs nomlarining hosil bo‘lishida ishtirok etuvchi tarkibiy komponent: alp aya sh.n. Alp Ayo: qachti aqar alp aya / uvut bolub ol yashar - Alp Ayo undan qochdi, u (yengiltaklik bilan aytib qo‘ygap gaplaridan) uyalib yashirinmoqda (MK 3-226). Alp er tona sh.n. Alp Er To‘nga: “Shohnoma” qahramonlaridan biri – Afrosiyobning turkiy ismi, qoraxoniylar sulolasining kelib chiqishi unga nisbat beriladi: alp er tona öldi-mu / esiz ajun qaldi-mu / özlak öchin aldi-mu / emdi yurak yirtulur – Alp Er To‘nga o‘ldimi, bevafo dunyo qolib ketdimi, dunyo undan o‘z o‘chini oldimi, endi yuraklar pora-pora bo‘lmoqda. Bundan tashqari lug‘atda yana: Alp er - baxodir, jasur, mard, botir: munar menzata aydi alp er achuq / anin ma‘nisi kör bu sözka tanuq – botir kishi bunga o‘xshatib juda ochiq qilib so‘z aytgan, uning mazmuni bu aytilgan so‘zlarga isbotdir, nazar sol. Alp yurak - qo‘rqmas, jasur, dovyurak, botir yurakli: uqushlug‘ biliglig tona alp yurak /xazina tolulab aqitg‘u kerak – (hokim) zakovatli, bilimli, jasur, dovyurak bo‘lmog‘i, xazinani to‘ldirib topshirmog‘i kerak. Yana qadimgi turkiy tildagi: Alpag‘ut botir, bahodir, pahlavon, yengilmas, kurashchi; sara jangchilar; harbiy ayonlar: qorqma anar otru turub tegra yera / qapsa aninn alpag‘utin andan yara - undan (yov lashkaridan) qo‘rqma, uni qarshi olib yonginasida tur, uning botirlarini qurshab ol, undan ajratib, majaqlab tashla”. Ushbu birliklar jasorat, sadoqat, fidoyilik, mardlik va yetakchilik kabi tushunchalarni ifodalovchi konseptual tizimni tashkil etadi.

Manbalarni aynan keltirishimiz “alp” so‘zining keng semantik maydonga ega ekanligini isbotlashdir. O‘zbek tilining izohli lug‘atlarida izohlash imkoniyati lug‘at tuzish tamoyiliga munosib cheklanganligi bois mazkur leksemaning tarixiy-semantik tavsifi qisman yoritilgan. Izohli lug‘atning yangi nashrlarida “alp” so‘zi asosida yuzaga kelgan “alp er”, “alp yurak”, “alplik” kabi birliklarni ham mustaqil lug‘at maqolalari sifatida kiritish maqsadga muvofiqdir.

Kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan “alp” leksemasi turkiy xalqlar konseptosferasining markaziy elementlaridan biri hisoblanadi. Mazkur birlik oddiy nominativ ma‘nodan tashqari xalqning tarixiy tajribasi, ijtimoiy g‘oyalari va axloqiy qadriyatlarini mujassamlashtirgan murakkab mental tuzilma sifatida namoyon bo‘ladi.

Kognitiv semantika nuqtayi nazaridan qaralganda, “alp” konsepti qahramonlik, mardlik, jasorat, adolatparvarlik, himoyachilik, fidoyilik, yetakchilik va vatanparvarlik kabi konseptual belgilar majmuasidan tashkil topgan.

Kognitiv model sifatida “alp” konsepti turkiy xalqlarning olam manzarasida “ideal inson” freymining tarkibiy qismi vazifasini bajaradi. Ushbu freym tarkibiga jismoniy kuch, ma’naviy barkamollik, sadoqat, donolik va adolat kabi komponentlar kiradi. Folklor matnlari, qahramonlik eposlari va tarixiy yodgorliklarda alp obrazining muntazam takrorlanishi mazkur konseptning xalq ongida barqaror kognitiv sxema sifatida shakllanganini ko’rsatadi. Lingvomadaniy jihatdan esa “alp” konsepti turkiy xalqlarning etnik o’zligini aks ettiruvchi madaniy kodlardan biri sanaladi. U orqali xalqning qahramonlik haqidagi tasavvurlari, axloqiy meyorlari va ijtimoiy ideallari verbal shaklda ifodalanadi. Shu bois “alp” leksemasini faqat “bahodir” yoki “jangchi” ma’nolarida talqin qilish uning konseptual va madaniy mazmunini to’liq ochib bera olmaydi. Mazkur birlikning semantik tarkibida tarixiy, madaniy va kognitiv qatlamlar o’zaro uyg’unlashgan holda namoyon bo’ladi.

Turkiy xalqlar epik tafakkurida alp obrazi jismoniy qudrat egasi bo’lish bilan cheklanmaydi. U ayni paytda jamiyat manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan ustun qo’yuvchi, el-yurt osoyishtaligini himoya qiluvchi hamda axloqiy komillik namunasi sifatida tasavvur etiladi. Shu sababli “alp” konsepti individual qahramonlikni emas, balki jamoaviy manfaatlarga xizmat qiluvchi komil shaxsni ifodalaydi. Folklorga oid leksemalar milliy tilning tarixiy xotirasi va madaniy tajribasini saqlovchi muhim birliklar hisoblanadi. “Alp” leksemasi misolida olib borilgan tahlillar uning murakkab tarixiy-semantik, lingvomadaniy va kognitiv tuzilishga ega ekanligini ko’rsatdi. Shu bois zamonaviy izohli lug’atlarda folklorizmlarni tavsiflashda ularning nafaqat lug’aviy ma’nosi, balki madaniy-konseptual mazmunini ham yoritish zarur.

O’zbek tilining izohli lug’atlarida folk. pometasi bilan belgilangan xalq so’zlari salmoqli o’rin egallaydi. Folklor manbalaridagi adabiy til normalariga mos so’z va birikmalar muayyan bo’shliqlarni to’ldirish imkoniyatini beradi va xalq so’zlari, sheva birliklarining ommalashuvi, saqlab qolinishida muhim asos bo’lib xizmat qiladi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalariga ko’ra, folklorizmlar izohli lug’atlarda milliy tilning tarixiy va madaniy qatlamini aks ettiruvchi muhim birliklar sifatida namoyon bo’ladi. “Alp” leksemasi misolida olib borilgan tahlil uning nafaqat “bahodir, mard” ma’nosini ifodalovchi oddiy leksik birlik, balki turkiy xalqlarning lingvomadaniy konseptlaridan biri ekanini ko’rsatdi.

Shuningdek, Devonu lug’otit turk va zamonaviy O’zbek tilining izohli lug’ati materiallari tahlili folklorizmlarni izohlashda tarixiy-semantik va kognitiv yondashuvlarning muhimligini tasdiqladi.

Umuman olganda, folklorizmlarni lug’atlarda yoritishda ularning faqat leksik ma’nosi emas, balki madaniy-konseptual mazmunini ham hisobga olish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Каримов Қ. Қадимги туркий тил луғати (X-XII асрлар). – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2009. — 148 б.
2. Кошғарий М. Девону луғотит турк. – Тошкент: Фан, 1960. – 498 б.
3. Ўзбек тили изоҳли луғати Икки томли 1-том. – Москва: Рус тили, 1981. – 631 б.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик, 1-жилд. – Тошкент: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020. – 679 б.
5. Hasanov A. Sheva so‘zlarini izohli lug‘atga kiritish masalalari haqida. Namangan davlat Universiteti ilmiy axborotnomasi. 2024, №7. –Б. 352-356.

